

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH
DASTURI ORQALI O‘QISH, MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY
SAVODXONLIKLARINI O‘RGANISH TEHNOLOGIYALARINING
ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Axmedova Shoxida

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Burxanov Shavqiddin SHerali o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti II-bosqich magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro tadqiqotga tayyorlash masalalari haqida ma‘lumotlar va shuningdek, bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturi, xorijiy tajribalar, ta‘lim sifatini baholash, o‘quvchi, o‘qituvchi.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о подготовке учащихся начальных классов общеобразовательных школ к международным исследованиям PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, а также о работе, которая должна быть проведена в этом отношении.

Ключевые слова: PIRLS, TIMSS, PISA, международная программа оценки TALIS, зарубежный опыт, оценка качества образования, ученик, учитель.

ABSTRACT

This article also shows information on the issues of preparing primary school students of general secondary schools for international research PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, as well as the work that needs to be done in this regard.

Keywords: PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS International Assessment Program, foreign experiences, assessment of the quality of Education, Student, Teacher.

Ayni davrga kelib globallasuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida avj olmoqda va o‘z navbatida, fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o‘shishiga hamda ta’lim sohasidagi integrasiya jarayoning yanadachuqurlashishiga olib kelmoqda. Ta’limning sifati, uning kompetentligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash globallasuv davrining muhim xususiyatlariga aylandi. Shuningdek, globallasuv jarayoni kelajak egalari sifatidayosh avlodni tayyorlashda dunyo mamlakatlarining maqsadlarini umumiydashishiga olib keldi. Dunyo davlatlari ta’limning jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi muhim o‘rnini e’tiborga olib, ta’lim sifatiga e’tibor qaratdi. Ayni davrda ta’lim sohasida sifat tushunchasi global fenomen sifatida ko‘rilmoqda. Yoshavlodning intellektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat balki xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ta’lim sifati, ta’lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko‘pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta’lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL kabi xalqaro baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan. Zamonaviy globallasuv va o‘zib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida “Har tamonlama rivojlanish konsepsiyasi” yosh avlodning bilim darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son qaroriga muvofiq Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil qilish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va

innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida qaror qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda Ta’lim inspeksiyasi deb ataladi), Xalq ta’limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o‘rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish:

- Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

- Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

- The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

- The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun kabi xalqaro baholash dasturlari taahkil etilmoqda.

Xo‘sh, Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS), Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS), The Programme for International Student Assessment (PISA), The Teaching and Learning International Survey (TALIS) kabi xalqaro baholash dasturlari o‘zi qanday baholash turi? Bu kabi xalqaro tadqiqotlar mamlakatimiz ta’lim tizimida qanday ahamiyati bor? Bizga shu kabi xalqaro baholash dasturlari nima uchun kerak degan savollar tug‘iladi.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) ning mazmun va mohiyati. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi taraqqiyot) bu 4-sinf o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunishdarajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir. PIRLS-

(inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarda boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta, bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta’lim institutlari assosiyatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosiyatsiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas’uliyat Chestnut Hill (Maccachusetts, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma’lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o‘tkazilgan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. PIRLS tadqiqotda ishtirok etuvchi turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfga maktab o‘quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko‘plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to‘rtinchi sinfni 10.5 yoshda tugatishadi. Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda- maktabga 5 yoshdan qabul qilishadi va ahamiyatli jihati PIRLS xalqaro tadqiqotida ushbu mamlakatlarning 5-sinf o‘quvchilari xalqaro tadqiqotda ishtirok etishadi. Shvesiya, Daniya va ko‘plab Sharqiy davlatlarda- maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o‘quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS). TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy maqsadi boshlang‘ich va o‘rta maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim sifatini qiyosiy baholashdan iborat. Tadqiqotda 4-8-sinf o‘quvchilarining ta’limdagi yutuqlari, jumladan, ularning nafaqat bilim va ko‘nikmalari, balki fanlarga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi ham baholanadi. Tadqiqot shunday tuzilganki, uning natijalari 4-sinf

o‘quvchilari 8-sinfga o‘tganlarida, har 4 yilda ishtirokchi mamlakatlarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim tendentsiyalarini kuzatib boradi. Shunday qilib, boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilarining ta’lim yutuqlari, shuningdek, boshlang‘ich maktabdan o‘rta maktabga o‘tish davrida matematika va tabiatshunoslik ta’limidagi o‘zgarishlar nazorat qilinadi.

Tadqiqotni o‘tkazish va uni ishlab chiqishda dunyoning ko‘plab tadqiqot markazlari va professional tashkilotlari ishtirok etadilar: Ta’lim test xizmati (ETS - Educational Testing Service, AQSH), Kanada Statistika Markazi (Statistics Canada), Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi Kotibiyati (IEA, Niderlandiya), Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma’lumotlarni qayta ishlash markazi (DPC IEA — Data Processing Center IEA, Germaniya) va boshqalar. Shu bilan birga, turli mamlakatlar mutaxassislarining sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun dunyoning yetakchi ekspertlaridan iborat maslahat qo‘mitalari tuzilgan. Barcha tadqiqotlar Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi (TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

O‘zbekistonda ushbu tadqiqot Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan tashkil etiladi

The Programme for International Student Assessment (PISA). Turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. PISA testlari maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o‘tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo‘nalishiga afzallik berilib, ja’mi testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo‘ladi. 2000-yilda ilk bor o‘qish savodxonligiga urg‘u berilgan. Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan

konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo bo’lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo’lgan davlatlar ishtirok etadi. PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo’lib, u turli mamlakatlardagi ta’lim tizimlarida sodir bo’layotgan o’zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta’lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015- yillar oralig’ida o’tkazilgan tadqiqot natijalari bo’yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda – Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada - Finlyandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o’rta ta’lim tizimi yaxshi rivojlangan.

The Teaching and Learning International Survey (TALIS). TALIS o’qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta’lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot hisoblanadi. TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan o’zlashtirish darajasini baholash dasturi bo’lib, bu tadqiqot to’rt yilda bir marta o’tkaziladi. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo’yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo’shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo’yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o’quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o’qituvchilar salohiyati, o’quvchilarning oilalari bilan bog’liq omillari o’rganiladi. TIMSS dasturi o’zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo’lib, 2019-yilga qadar har to’rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, yosh avlod bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga qo’llash bilan birga milliy baholash tizimini yanada takomillashtirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo’ladi. Xalqaro dasturlarda ishtirok yetish yosh avlodning intellektual salohiyatini qay darajada rivojlanayotganini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo’nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa milliy baholash tizimining yanada

takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok yetishini ta'minlash bilan birga ularning kreativligini va kompetentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Zero, ayni davr ta'limi va global taraqqiyot bilimlar universalligini ham talab yetmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
3. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining saytlari.

